

To'lov-kontrakt (Ikki tomonlama) asosida mutaxassis tayyorlashga

KONTRAKT № B3682302640/K

Surxondaryo

09.09.2023

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrda 508-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2431, 2013-yil 26-fevral) bilan tasdiqlangan Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, **TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ FILIALI** (keyingi o'rinlarda "Ta'lim muassasasi") nomidan rektor (direktor) **Otamurodov Furqat Abdukarimovich** bir tomondan, **O'tkirov Bunyodbek Akmal O'g'li (50610025720046)** (keyingi o'rinlarda "Ta'lim oluvchi") ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb ataladigan shaxslar mazkur kontraktni quyidagicha tuzdilar:

I. KONTRAKT PREDMETI

1.1. Ta'lim muassasasi ta'lim xizmatini ko'rsatishni, Ta'lim oluvchi o'qish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni va tasdiqlangan o'quv reja bo'yicha darslarga to'liq qatnashish va ta'lim olishni o'z zimmlariga oladi. Ta'lim oluvchining ta'lim ma'lumotlari quyidagicha:

Ta'lim bosqichi: **Bakalavr**
Ta'lim shakli: **Kunduzgi ta'lim**
O'qish muddati: **5 yil (2028)**
O'quv kursi: **1-kurs**
Ta'lim yo'nalishi: **Tibbiy profilaktika ishi**

1.2. "Ta'lim muassasasi"ga o'qishga qabul qilingan "Ta'lim oluvchi"lar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va davlat ta'lim standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv rejalar va fan dasturlari asosida ta'lim oladilar.

II. TA'LIM XIZMATINI KO'RSATISH NARXI, TO'LASH MUDDATI VA TARTIBI

2.1. "Ta'lim muassasasi"da o'qish davrida ta'lim xizmatini ko'rsatish narxi Respublikada belgilangan Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga bog'liq holda hisoblanadi. O'qitishning kunduzgi ta'lim shaklida ta'lim xizmati ko'rsatish narxining "stipendiyali" va "stipendiyasiz" shakllari mavjud bo'lib, ta'lim oluvchiga ushbu imkoniyatni tanlash uchun o'quv yili boshida rektor nomiga yozma ariza bilan murojaat etadi.

2.2. Ushbu kontrakt bo'yicha ta'lim oluvchini bir yillik o'qitish uchun to'lov **9,129,930.00** (to'qqiz million bir yuz yigirma to'qqiz ming to'qqiz yuz o'ttiz so'm) so'mni (Stipendiyasiz) tashkil etadi va quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

Choraklarga bo'lib to'langanda quyidagi muddatlarda:

- belgilangan to'lov miqdorining kamida **25.00** foizini talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun **15.10.2023** gacha yoki Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatgacha, ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalar uchun **15.10.2023** gacha;
- belgilangan to'lov miqdorining kamida **50.00** foizini **31.12.2024** gacha, **75.00** foizini **15.03.2024** gacha va **100.00** foizini **31.05.2024** gacha.

2.3. Ushbu kontraktning 2.2-bandida ko'zda tutilgan to'lov muddatlarini o'zgartirish, talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun - Davlat komissiyasining qarori asosida, ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalar uchun - "Buyurtmachi"ning asosli sabablari ko'rsatilgan holdagi yozma murojaatiga ko'ra "Ta'lim muassasasi" rektor (direktor)ining qarori asosida amalga oshiriladi va bir semestr uchun amal qiladi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Ta'lim muassasasi majburiyatlari:

- O'qitish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirgandan so'ng, "Ta'lim oluvchi"ni buyruq asosida talabalikka qabul qilish.
- Ta'lim oluvchiga o'qishi uchun O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Ta'lim muassasasi" Ustavida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlarga muvofiq sharoitlarni yaratib berish.
- Ta'lim oluvchining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari hamda ta'lim muassasasi Ustaviga muvofiq professor-o'qituvchilar tomonidan o'zlarining funksional vazifalarini to'laqonli bajarishini ta'minlash.
- Ta'lim oluvchini tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tasdiqlangan o'quv rejasi va dasturlariga muvofiq davlat ta'lim standarti talablari darajasida tayyorlash.
- O'quv yili boshlanishida ta'lim oluvchini yangi o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdori to'g'risida o'quv jarayoni boshlanishidan oldin xabardor qilish.
- Respublikada belgilangan Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori yoki tariflar o'zgarishi natijasida o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdori o'zgargan taqdirda ta'lim oluvchiga ta'limning qolgan muddati uchun to'lov miqdori haqida xabar berish.

3.2. Ta'lim oluvchining majburiyatlari:

- Kontraktning 2.2. bandida belgilangan to'lov summasini shu bandda ko'rsatilgan muddatlarda to'lab borish.
- Respublikada belgilangan Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori yoki tariflar o'zgarishi natijasida o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdori o'zgargan taqdirda, o'qishning qolgan muddati uchun ta'lim muassasasiga haq to'lash bo'yicha bir oy muddat ichida kontraktga qo'shimcha bitim rasmiylashtirish va to'lov farqini to'lash.
- Ta'lim oluvchi o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdorini to'laganlik to'g'risidagi bank tasdiqnomasi va kontraktning bir nusxasini o'z vaqtida hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ta'lim muassasasiga topshirish.
- Tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishining (mutaxassisligining) tegishli malaka tavsifnomasiga muvofiq kelajakda mustaqil faoliyat yuritishga zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallash, dars va mashg'ulotlarga to'liq qatnashish.
- Ta'lim muassasasi va talabalar turar joyining ichki nizomlariga qat'iy rioya qilish, professor-o'qituvchilar va xodimlarga hurmat bilan qarash, "Ta'lim muassasasi" obro'siga putur yetkazadigan harakatlar qilmaslik, moddiy bazasini asrash, ziyon keltirmaslik, ziyon keltirganda o'rnini qoplash.

IV. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Ta'lim muassasasi huquqlari:

- O'quv jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish, "Ta'lim oluvchi"ning oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirish, qayta topshirish tartibi hamda vaqtlarini belgilash.
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, "Ta'lim muassasasi" nizomi hamda mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq "Ta'lim oluvchi"ga rag'batlantiruvchi yoki intizomiy choralarni qo'llash.
- Agar "Ta'lim oluvchi" o'quv yili semestrlarida yakuniy nazoratlarni topshirish, qayta topshirish natijalariga ko'ra akademik qarzdor bo'lib qolsa uni kursdan-kursga qoldirish huquqiga ega.
- "Ta'lim muassasasi" "Ta'lim oluvchi"ning qobiliyati, darslarga sababsiz qatnashmaslik, intizomni buzish, "Ta'lim muassasasi"ning ichki tartib qoidalariga amal qilmaganda, respublikaning normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra hamda o'qitish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganda "Ta'lim oluvchi"ni talabalar safidan chetlashtirish huquqiga ega.

4.2. Ta'lim oluvchining huquqlari:

- O'quv yili uchun kontrakt summasini semestrlarga yoki choraklarga bo'lmasdan bir yo'la to'liqligicha to'lash mumkin.
- Ta'lim oluvchi mazkur kontrakt bo'yicha naqd pul, bank plastik kartasi, bankdagi omonat hisob raqami orqali, ish joyidan arizasiga asosan oylik maoshini o'tkazishi yoki banklardan ta'lim krediti olish orqali to'lovni amalga oshirishi mumkin.
- Professor-o'qituvchilarning o'z funksional vazifalarini bajarishidan yoki ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlardan norozi bo'lgan taqdirda ta'lim muassasasi rahbariyatiga yozma shaklda murojaat qilish.

V. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI, UNGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAMDA BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu kontrakt ikki tomonlama imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda ta'lim xizmatlarini taqdim etish o'quv yili tugagunga qadar amalda bo'ladi.

5.2. Ushbu kontrakt shartlariga ikkala tomon kelishuviga asosan tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin

5.3. Kontraktga tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda "Kontraktga qo'shimcha bitim" tarzida kiritiladi va imzolanadi.

5.4. Kontrakt quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- Tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan.
- "Ta'lim oluvchi" talabalar safidan chetlashtirganda "Ta'lim muassasasi" tashabbusi bilan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.
- Tomonlardan biri o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda.
- Uzrli sabablar bilan, "Ta'lim oluvchi"ning tashabbusiga ko'ra.
- Ta'lim muassasasi tugatilganda, ta'lim oluvchi bilan o'zaro qayta hisob-kitob qilinadi.

5.5. Ta'lim muassasasi tugatilganda, Ta'lim oluvchi bilan o'zaro qayta hisob-kitob qilinadi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu kontraktni bajarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizo va ziddiyatlar tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tomonlar nizolarni hal etish uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq iqtisodiy sudga murojaat etishlari mumkin.

6.3. "Ta'lim muassasasi" axborotlar va xabarnomalarini internetdagi veb-saytida, axborot tizimida yoki e'lonlar taxtasida e'lon joylashtirish orqali xabar berishi mumkin.

6.4. Ushbu kontraktga qo'shimcha bitim kiritilgan taqdirda ushbu barcha kiritilgan qo'shimcha bitimlar kontraktning ajralmas qismi hisoblanadi.

VII. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

7.1. Ta'lim muassasasi:

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ
FILIALI

Pochta manzili:

Address: Termiz sh I. Karimov ko'chasi 64-uy

E-mail:

Tel.: (1,

Faks:

Bank rekvizitlari:

O'z.Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

h/r:23402000300100001010

STIR: 201122919, XKKM Markaziy bank

MFO: 00014

Shg'hv: 400910860224017094100054001

INN: 305311179

IFUT: 85420

7.2. Ta'lim oluvchi:

F.I.Sh.: O'tkirov Bunyodbek Akmal O'g'li

Yashash manzili: ,

Pasport ma'lumotlari: AC2551336

Pinfl: 50610025720046

Talaba kodi: 368231100376

Telefon raqami: 998881113903

